

Talabalarning O'Quv Motivatsiyasi Sohasiga Psixologik Ta'sir O'Tkazish Mahsulдорligini Oshirish Omillari

Haydarov F. I.¹

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quv faoliyatidagi motivatsion sohasiga psixologik ta'sir ko'rsatish jarayonini amalga oshirish texnologiyasini ilmiy tadqiq etishda psixolog olimlarning qarashlari asosida metodologik tamoyil talablari va ularni amalga oshirish xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlari: motiv, motivatsiya, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, emotsiyalar, psixokorreksion, psixodinamik, bixeviorizm va gumanistik yondashuvlar.

Talaba shaxsiga psixologik ta'sir ko'rsatish jarayonini amalga oshirish texnologiyasiga binoan nihoyatda nozik oqibatlar uchun javobgarlik darajasiga ko'ra mas'uliyati ulkan maxsus jarayon sifatida tushunish lozim. Bunday ta'sir jarayoni kuchli o'zgartiruvchanlik salohiyatiga ega bo'lib, uning natijasi kursant hayotining barcha jabhalarida o'zini muayyan shaklda namoyon qiladi.

O'quv motivatsiyasi sohasiga ta'sir ko'rsatish uchun yo'naltirilgan psixokorreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulot shaxsning ichki motivatsion salohiyatini ro'yobga chiqarish, faollashtirishni ko'zda tutadi. Talabalar bilan bu yo'nalishda olib boriladigan mashqning katta imkoniyatlarini e'tirof etgan holda, psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir samaradorligini faqat ushbu jarayon xususiyatlari bilan, uning texnologik ta'minoti xususiyatlari bilan emas, balki cheklanib tushuntirishga urinish o'ziga xos amaliy reduksionizmga olib borishi mumkinligini qayd etish lozim.

Psixik hodisalarning tizimli determinatsiyasi tamoyiliga asosan ushbu hodisalarni o'rganishda ularga ta'sir ko'rsatuvchi yagona eng muhim omilni aniqlashga urinish tadqiqotchini boshi berk ko'chaga yetaklaydi. B.F.Lomov ta'kidlaganidek, turli xil determinantalarning o'zaro nisbatida dinamizm yuqoriroq, muayyan sharoitda qo'shimcha omil bo'lgan narsa boshqa sharoitda hal qiluvchi omil sifatida o'zini namoyon qilishi mumkin [2,1]. Zero, S.L.Rubinshteyn ta'biri bilan aytganda, hodisalarni o'rganishda biror omilni yagona omilga aylantirish psixik faoliyatning eng umumiy qonuniyatlarini ochish sari yo'lni berkitish bilan barobardir [3]. Mazkur tadqiqotlarning metodologik asosini tashkil etuvchi ushbu nazariy yondashuvlarga muvofiq talabalar o'quv motivlari sohasiga psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir samaradorligini belgilab berish imkoni mavjud omillar, mavjud shart-sharoitlarni tavsiflash zarurati vujudga keladi, ularning tizimini tahlil qilish vazifasining ahamiyati yanada ortadi.

Shaxsiga psixologik ta'sir qanday shakl va usul bilan amalga oshirilmasin, bu jarayon hamisha insonning ichki his-tuyg'u, kechinmalari, turmushga nisbatan qarashlari, olamga va o'ziga nisbatan munosabatiga faol aralashishni anglatadi. Psixologik ta'sirning mazmuni, tashkiliy shakli turli konseptual asosli yondashuvlar (psixodinamik, bixeviorizm va gumanistik yondashuvlar) da turlicha kechishi tabiiy. Biroq mutaxassislar har xil nazariy asosga tayanib amalga oshiriladigan psixologik ta'sirning samaradorligida muayyan umumiylik mavjudligini e'tirof etadilar [4]. Jumladan, psixologik trening doirasida amalga oshiriladigan ta'sir birinchi navbatda shaxsning kommunikativ qobiliyatlarini oshirib, shaxslararo munosabatlarning kompetensiyasi yaxshilanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, trening vositasi bilan ta'sir ijtimoiy-psixologik kompetensiyada, ya'ni vaziyatda to'g'ri mo'ljal ola bilish, vaziyatga mos xulq-atvor shaklini tanlash va ro'yobga chiqara olish [5]. Shaxsda shuningdek, aksariyat holatlarda psixologik ta'sirdan o'zini boshqa odam o'rniga qo'ya bilish qobiliyatini [6],

¹ Professor of Department "Pedagogy and psychology" of the university TIFT.



muomalada refleksiya darajasini [7] oshirish maqsadida qo'llaniladi. Qolaversa, psixologik ta'sir shaxsda ichki erkinlik, o'z-o'ziga ishonch hissining kuchayishi, uning nostandart fikrlash qobiliyati, izlanuvchanlik sohasidagi faolligining, faol pozitsiya tanlashga intilish darajasining oshishini ko'zda tutadi [8].

Maxsus sinov mashg'ulotlari doirasida psixologik ta'sirning samarali bo'lishi va ta'sir ob'ektida yuqorida ta'kidlangan ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqarishi umuman uchta global omilga bog'liq: 1) ta'sir ob'ektining xususiyatlari; 2) ta'sir sub'ektining xususiyatlari; 3) ta'sir vositalarining xususiyatlari. Masalan, tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, muvaffaqiyat motivatsiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan trening mashg'ulotlari kursantlar bilan ishlashda, ayniqsa, samaradorlidir [9]. Ayrim tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, ijodiy topshiriqni bajarishda birinchi va ikkinchi kurs talabalar uchun va to'rtinchi kurs talabalariga nisbatan ko'proq jonbozlik ko'rsatadilar [10].

Psixologik ta'sir sub'ektining ijtimoiy, kasbiy-shaxsiy yetukligi, ta'sir jarayonini tashkil etishga individual yondashish, guruhni faollashtirish, guruhda ko'tarinki jangovar emotsional muhit yaratishi, o'zining shaxsiy motivatsiyasi ham ta'sir samaradorligini belgilab berishi, shubhasiz, ijobiy voqelikdir. Ta'sir sub'ektining odamlarga nisbatan katta qiziqishga, ular bilan muomalada tolerantlikka, ularning xulq-atvori va ustanovkalariga nisbatan sezuvchanlikka, ularda ishonch uyg'ota bilish qobiliyatiga egalik ko'p jihatdan psixologik ta'sirning samarasini belgilab beradi [11]. O'z-o'zidan ayonki, psixologik ta'sirni amalga oshiruvchi sub'ektning avtoritarligi, passivligi, tobeligi, ta'sir ob'ektiga shaxsiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida qarashi, sabr-bardoshli bo'lmasligini shakllantiruvchi, o'zgartiruvchi faoliyatning imkoniyatlarini nihoyatda pasaytirib yuboradi [12].

Talabaning psixik rivojlanishiga, psixokorreksion-rivojlantiruvchi maqsadga aralashuv doim qandaydir vositalar orqali amalga oshar ekan, ushbu vositalarning xususiyatlari ham kutilma maqsadga qanchalik tez, oson erishilishini, vujudga kelgan ijobiy o'zgarishlarning qanchalik barqaror bo'lishini belgilab beradi. Masalan, tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bilish faoliyatiga mo'ljallangan noan'anaviy topshiriqqa nisbatan aksariyat holatlarda ijtimoiy-psixologik trening ishtirokchilarining birinchi reaksiyasi topshiriqni bajarish yo'llarini qidirishga tayyor emaslik, harakat qilmaslik, aksincha, vazifani bajarish yo'li, yechimini topish usuli bo'yicha qandaydir yo'riqnoma, ko'rsatmani kutish, hatto, talab qilishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, psixologik ta'sir samaradorligi yuqorida ta'kidlangan uch turkum omillarining o'zaro ijobiy munosibligini taqozo etadi.

Shaxsga psixokorreksion-rivojlantiruvchi maqsadda psixologik ta'sir ko'rsatish jarayonining samaradorligini belgilab beruvchi omillarning adabiyotlarda [13], [14], [15] keltirilgan tasniflari o'ziga xos yondashuvlar va mezonlar asosida ishlab chiqilganini e'tirof etgan holda, ushbu tasniflarda odatda ta'sir ob'ekti va sub'ekti bilan bog'liq omillar bir-biridan mustaqil holda tavsiflanishini ta'kidlash kerak. Albatta, psixologik ta'sir samaradorligining omillarini bunday guruhlashtirish shartli bo'lib, real amaliy-psixologik jarayonda ularning barchasi birgalikda "o'z so'zini" aytadi. Biroq omillarning bu ichki birligini tasnifiy sxemalarda ham aks ettirishga urinish ko'p holatlarda ko'zga tashlanmaydi. Mazkur tadqiqot doirasida o'tkazilgan kuzatishlar, amaliy mashg'ulot samaradorligining miqdor va sifat tahlili asosida o'quv motivatsiyasiga psixokorreksion - rivojlantiruvchi ta'sir samaradorligi-ning ikki asosiy omili-ta'sir ob'ekti va sub'ektining xususiyatlarini yaxlit tizim sifatida tasvirlaydigan o'ziga xos model ishlab chiqildi.

Albatta, talabada ijobiy o'quv motivatsiyasining shakllanishiga birinchi navbatda ta'lim muassasasi va sinfdagi umumiy muhit, ta'lim sub'ektining har xil jamoaviy faoliyat turlarida ishtiroki, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik xususiyatlari, pedagogning boshqaruv uslubi, pedagogik mahorati (talabada o'ziga xos hayrat, qiziqish uyg'otadigan noan'anaviy usullardan foydalanish), rag'bat va tanbehni faollashtiruvchi vositalar sifatida qo'llay bilish bevosita ta'sir ko'rsatadi. Talaba shaxsiga har kun, har soat yo'naltiriladigan bevosita va bilvosita ta'sirining o'rnini hech qanday qisqa muddatli amaliy mashg'ulot jarayoni bosa olmaydi. Shunday bo'lsa-da, psixologiya fanining eng zamonaviy yutuqlariga asoslangan maxsus mashq va mashg'ulotlar vositasida talaba shaxsining rivojlanishdagi qonuniyatlarini to'liq hisobga olgan holda tizimli va maqsadli murakkab psixologik tuzilmalar tarkibidagi aniq mo'ljalni ko'zlab amalga oshiriladigan maxsus psixologik imkoniyatlari ham yuqori



bo'lishi mumkinligini amaliy tadqiqotlar, shu jumladan, shaxsiy tadqiqot natijalari ham ko'rsatib turibdi. Biroq, bizning nazarimizda, bu turdagi ta'sirning imkoniyatlaridan maksimal foydalanish uchun uning samaradorligini oshirishi va susaytirishi mumkin omillarning bo'lgan mazmuninigina emas, balki ular o'rtasidagi turli nisbatlar (omillarning o'zaro munosabatidagi gipotetik kombinatsiyalar)ni, turli nisbatlarning amaliy faoliyat natijasida qanday ask etishini bilish, oldindan diagnoz qilish nihoyatda muhimdir.

Psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir samaradorligining gipotetik kombinatsiyalanishi nuqtai nazaridan tahlil qilish uchun tadqiqotlarda ta'sir sub'ekti va ob'ektining xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan hamda ijobiy o'quv motivlarini shakllantirish va rivojlantirish yo'lidagi amaliy mashg'ulot samaradorligiga ta'sir ko'rsatish ehtimoli yuqoridagi fikrlar bo'yicha to'rt omilga ajratildi:

1. Shaxsiy mas'ullik.
2. Emotsional ko'tarinkilik.
3. Yangilik uchun ochiqlik.
4. Hamkorlikka tayyorlik.


Bizning ilmiy-uslubiy yondashuvimizga ko'ra, aynan ushbu xususiyatlar amaliy mashg'ulot davomidagi kombinatsiya yakunida psixokorreksion-rivojlantiruvchi faoliyat samarasini ta'minlaydi. Mazkur xususiyatlarni psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir samaradorligining omillari sifatidagi ta'sir sub'ekti va ob'ektidagi ifodasiga ko'ra, o'zaro nisbati (kombinatsiyasi) xususiyatlari qanday gipotetik natijalarga olib kelishi mumkinligi quyida alohida tahlil etiladi.

Ajratib ko'rsatilgan omillarning ta'sir sub'ekti va ob'ektidagi o'zaro nisbati qanday bo'lishiga qarab, o'quv motivatsiyasi sohasiga psixokorreksion-rivojlantiruvchi maqsadda ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan amaliy-psixologik chora-tadbirlarning natijalari har xil bo'ladi (1-rasm).

I. Shaxsiy mas'ullikning ta'sir sub'ekti va ob'ekti nisbati variantlari quyidagi natijalarni keltirib chiqarishi mumkin:

1. variant-ta'sir sub'ektida psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sirning maksimal imkoniyatlaridan qoniqmaganligi tufayli uning intinsivligini oshirishga, o'z kompetensiyasi zonasidan tashqariga chiqishga intilish kuzatiladi.
2. variant-ta'sir ob'ektida psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir jarayonining tashkil etilishi, o'tkazilishida ta'sir sub'ektining foaliyatidan qoniqmaslik kuzatiladi.
3. variant-ta'sir sub'ekti va ob'ektining psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir jarayoniga nisbatan rasmiyatchilikka xos munosabatda bo'lishi, ichki ishtiroksizligi kuzatiladi.
4. variant-ta'sir sub'ekti psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir doirasidagi chora-tadbirlarning barcha oqibatlarini chuqur anglab, ularni eng samarali yo'nalish bo'yicha amalga oshirish uchun qayg'uradi; ta'sir ob'ekti amaliy mashg'ulot samaradorligining asosiy mezoni undagi o'zgarishlar ekanini, ular uning faolligini taqozo etishini tushunadi.





1-rasm. Psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir sub'ekti va ob'ekti xususiyatlarining o'zaro nisbati modeli

II. Emotsional ko'tarinkilikning ta'sir sub'ekti bilan ob'ekti nisbati variantlari quyidagi natijalarni keltirib chiqarishi mumkin:

1. variant-ta'sir sub'ektining psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir jarayoni doirasidagi faoliyati ta'sir ob'ekti tomonidan g'ashga tegadigan darajada o'rinsiz harakat sifatida idrok etiladi.
2. variant-ta'sir sub'ekti tomonidan psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sirning ta'sir ob'ekti xulq-atvorida hosil qiladigan ob'ektiv o'zgarishlarni noadekvat baholaydi; ta'sir ob'ekti sub'ektning shaxsiy ishtirok etmasligini his etib turadi.
3. variant-ta'sir sub'ekti psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir maqsadidagi chora-tadbirlarni maksimal darajada qisqartirishga, ta'sir ob'ektining amaliy mashg'ulotiga oshkora antipatiyani namoyon etishga urinishi kuzatiladi.
4. variant-psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir doirasidagi chora-tadbirlar ta'sir sub'ekti va ob'ektining psixologik yaqinlashuvi, amaliy mashg'ulot jarayonining o'zidan yuksak qoniqish olishining sababidir.

III. Yangilik uchun ochiqlikning ta'sir sub'ekti bilan ob'ekti nisbati variantlari quyidagi natijalarni keltirib chiqarishi mumkin:

1. variant – psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir doirasidagi ishga ta'sir sub'ekti ijobiy yondashuvining maqsad va mohiyati tadqiqot ob'ekti tomonidan anglanmaydi, mashg'ulotni ortiqcha murakkablashtirish sifatida talqin etiladi.
2. variant – psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar ta'sir ob'ektining umidlarini oqlamaydi, unda bu yo'nalishdagi faoliyat bilan shug'ullanish istak-intilishi yo'qolib boradi.



3. variant – ta'sir sub'ekti bilan ob'ektini psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir doirasida o'z faoliyatining samarasizligi bezovta qilmaydi; ta'sir sub'ektida amaliy mashg'ulotni mazmunan boyitishga, ta'sir ob'ektida ijodiy topshiriqni bajarishga befarqlik kuzatiladi.
4. variant – psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir doirasida ta'sir sub'ekti o'zining ishlanmalarini to'liq ro'yobga chiqaradi, ta'sir ob'ektidan yangi narsalar oladi; ta'sir ob'ektida kreativ yondashuv istak-intilishi yanada kuchayadi.

IV. Hamkorlikka tayyorlikning ta'sir sub'ekti va ob'ektidagi nisbati variantlari quyidagi natijalarni keltirib chiqarishi mumkin:

1. variant – ta'sir sub'ektining psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir doirasidagi faoliyati ta'sir ob'ekti tomonidan yaqindan aloqa o'rnatish maqsadi ko'zlangan xushomadgo'y xulq-atvor sifatida idrok etiladi.
2. variant – ta'sir ob'ektining psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir doirasidagi faoliyati ta'sir sub'ekti tomonidan shaxsiy masofani yoki oraliqni qisqartirishga ortiqcha urinish sifatida talqin etiladi.
3. variant – ta'sir sub'ekti va ob'ektining psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir doirasi faoliyatida bir-birining maqsad-intilishlariga beparvolik, amaliy mashg'ulotda mutlaqo har xil yondashuvlarni ro'yobga chiqarishga intilish kuzatiladi.
4. variant – ta'sir sub'ekti bilan ob'ektining psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir doirasidagi faoliyati o'zaro yuksak muvofiqlashtirilgan va uyg'un, kutilmagan holatlarni hal etishda, yangi takliflar hamda tashabbuslarni ro'yobga chiqarishda birdamlik kuzatiladi.

Yuqoridagi tavsiflardan ko'rinib turganidek, shaxsiy mas'ullik, emotsional ko'tarinkilik, yangilikka ochiqlik, hamkorlikka tayyorlik kabi sifatlarning yuksak darajasi psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir sub'ekti bilan ob'ektida nisbiy muvozanatda, o'zaro nisbatan teng holatlarda ta'sir samarasi maksimal darajaga yetishi mumkin. To'rtala omil bo'yicha psixokorreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulot davomida ta'sir sub'ekti bilan ob'ektida nisbiy muvozanat kuzatilganda, ijobiy o'quv motivlarini shakllantirish va rivojlantirish yo'lidagi chora-tadbirlar ikki tomon amaliy ishining natijasi uchun shaxsiy mas'uliyat darajasini angelaydigan, mashg'ulotning o'zi yuqori ijodiy, erkin, samimiy ruhda o'tadigan vaziyat vujudga keladi. Shubhasiz, ushbu vaziyat nafaqat motivatsion sohada, balki kursant shaxsining boshqa muhim qatlamlari va tuzilmalarida ham ijobiy o'zgarishga zamin hozirlaydi.

Mukammal variantda bilim olish jarayoni, bu jarayonda o'qituvchi va tinglovchilar bilan muloqotda bo'lishning o'zi talabada ichki qoniqish, yoqimli hislarni uyg'otishi kerak. Ta'lim jarayonining psixologik ta'minotida bunday yuksak marraga erishish ko'p jihatdan o'quv faoliyati motivatsiyasining psixologik oqilona tashkil etilishiga bog'liq. Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan, bu yo'lda talabaning shaxsiy muvaffaqiyat standartlariga miyorlarini inobatga olib, ta'limni tashkil etish takliflari ham e'tiborga loyiq ekanini e'tirof etgan holda, o'quv faoliyatida muvaffaqiyat vaziyatini hosil qilishga irodaviy zo'r berish bilangina kursant shaxsning ichki motivatsion salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarib bo'lmastligini anglash lozim.

Tashqi pedagogik ta'sir samarali bo'lishi uchun qarama-qarshi tomon – kursant shaxsining motivatsion sohasida muayyan harakatni amalga oshirish talab qilinadi. O'quv motivatsiyasiga psixokorreksion-rivojlantiruvchi maqsadni amalga oshirish uchun ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari aynan shunday harakatga turtki berish funksiyasini bajaradi. Mazkur chora-tadbirlar samaradorligining o'zi ayni vaqtda qator ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liq. Shubhasiz, bu omillarning asosiylarini, ularning ta'sir imkoniyatlari va oqibatlarini bilish, ijobiy ta'sir quvvatidan foydalanish, salbiy ta'sir salohiyatini neytrallashtirish amaliy-psixologik mashg'ulot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ta'lim oluvchi talaba shaxsi o'quv faoliyati motivatsiyasiga psixokorreksion-rivojlantiruvchi psixologik ta'sir ko'rsatish samaradorligini oshirish omillari tizimi, ularning ta'siri va xususiyatlarining nazariy tahlili samarasi sifatida qo'yidagi xulosalarni chiqarish mumkin:



1. O'quv faoliyati motivatsiyasi murakkab psixologik tuzilma sifatida boshqa ko'plab tuzilmalarning ta'siriga senzitiv bo'lgani sababli, o'quv motivlarining shakllanishi va rivojlanishini ko'p omilli ta'sir modeli asosida tushuntirish maqsadga muvofiq.
2. O'quv motivatsiyasiga psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatish majmuida maxsus psixologik usul va vositalarning ta'sir etish imkoniyati o'zining ichki salohiyatidan tashqari, ko'pgina tashqi omillarga bog'liqligini e'tiborda tutish ayni muddaodir.
3. O'quv motivlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida yo'naltirilgan maxsus rejali va tizimli ta'sir samaradorligini belgilab beruvchi omillar, odatda bir-biridan ajratilgan holda tahlil etilishi ularning munosabatlariga xos xususiyatlarni ta'sirlovchi omil sifatidagi ahamiyatining e'tiborsiz qoldirilishiga olib kelishi mumkin.
4. O'quv faoliyati motivatsiyasiga psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatishga qaratilgan amaliy-psixologik mashg'ulotning samaradorligi ta'sir sub'ekti bilan ob'ektining shaxsiy mas'ullik, jangovar emotsional ko'tarinkilik, yangilik uchun ochiqlik, hamkorlikka tayyorlik kabi shaxslilik sifatlarining o'zaro nisbati va munosabati bilan belgilanish ehtimoli yuqori.
5. O'quv faoliyati motivatsiyasiga shakllantiruvchi-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatish maqsadida o'tkazilayotgan maxsus chora-tadbirlar samaradorligini oshirish natijasida kursantlar shaxsining turli boshqa sohalarda ham ijobiy o'zgarishlarni kutish uchun muhim asos paydo bo'ladi.

Shunday qilib, o'quv motivlarini psixokorreksiyalash va rivojlantirish maqsadida talabning bilish faoliyati va shaxsiga ta'sir ko'rsatishning uslubiy muammolarini nazariy tahlil qilish, bo'yicha ilgari surilgan g'oyalar, taklif, mulohazalar quyidagi xulosalarni chiqarishga asos yaratadi:

- o'quv motivatsiyasi muammosini o'rganishda psixologiyada turli xil yondashuvlar va qarashlar mavjud bo'lgani kabi, uni shakllantirish va rivojlantirish masalasiga nisbatan ham bir-biridan o'z nazariy asoslari va uslubiy tabaitiga ko'ra o'zaro keskin farqlanuvchi yo'nalishlar mavjud;
- o'quv motivatsiyasi murakkab tuzilmaga egaligi tufayli unga psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sirni bir necha yo'nalish bo'yicha, o'quv faoliyati psixologiyasining turli bo'g'in va qatlamlariga yo'naltirilgan tarzda amalga oshirish samarali kechadi;
- o'quv motivatsiyasiga psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatish strategiya va texnologiyalarini ularning samaradorligiga ko'ra, shartli ravishda simultant va kumulyativ effektga (samaraga) asoslangan faol psixologik ta'sir ko'rsatish yo'nalishi va usullarini farqlash mumkin;

O'quv faoliyati motivatsiyasiga psixokorreksion-rivojlantiruvchi psixologik ta'sir ko'rsatish samaradorligining omillari tizimi, ularning ta'siri va xususiyatlarining nazariy tahlili samarasi sifatida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- o'quv motivatsiyasiga psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatish mashg'ulotlarida maxsus psixologik usul va vositalarning ta'sir imkoniyati o'z ichki imkoniyatidan tashqari, ko'pgina tashqi omillarga bog'liqligi aniqlandi;
- o'quv motivlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida yo'naltirilgan maxsus rejali va tizimli ta'sir samaradorligini belgilab beruvchi omillarning, odatda, bir-biridan ajratilgan holda tahlil etilishi ularning munosabatlariga xos xususiyatlarni ta'sirlovchi omil sifatidagi ahamiyatining e'tiborsiz qoldirilishiga olib kelishi isbotlandi;
- o'quv faoliyati motivatsiyasiga psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatishga qaratilgan amaliy-psixologik tajribaning samaradorligi ta'sir sub'ekti bilan ob'ektining shaxsiy mas'ullik, emotsional ko'tarinkilik, yangilik uchun ochiqlik, hamkorlikka tayyorlik kabi shaxslilik sifatlarining o'zaro nisbati va munosabati bilan belgilanishi ehtimoli yuqori ekanligi kuzatildi;
- o'quv faoliyati motivatsiyasiga shakllantiruvchi-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatish maqsadida o'tkazilayotgan maxsus chora-tadbirlar turli boshqa sohalarda ham ijobiy o'zgarishlar kutilmasi uchun muhim asos bo'lib xizmat qilgan ekan.



Foydalangan adabiyotlar

1. Ajdodlar o'giti: Hikoyatlar, hikmatlar, tavsillar/ To'plovchi va izohlovchi B.Ahmedov. – Toshkent: Cho'lpon, 1990. – 240 b.
2. Принцип системности в психологических исследованиях: Сборник научных статей. А.Н.СССР. Ин-т психологии.-М: Наука, 1990. -182 с.
3. Рубинштейн С.Л. Бытие и сознание. О месте психологии во всеобщей взаимосвязи явлений материального мира. – М: Изд-во АН СССР, 1957.-328 с.
4. Зайцева Т.В. Теория психологического тренинга: психологический тренинг как инструментальное действие. – М: Смысл, 2002.- 80 с.
5. Вачков И. В. Основы технологии группового тренинга. – М.: Инфра-М, 1999.- 243 с.
6. Большаков В.Ю. Психологический тренинг. – СПб.: Речь, 1996.-221 с.
7. Лушпаева Е.В. Динамика рефлексивных процессов в социально-психологическом тренинге: проблема децентрации// Вестник МГУ, Психология. – М., 1984.- № 4.- С. 70-72.
8. Арнольд О.Р. Ролевой тренинг. Метод. пособие. – М.: Педагогика, 1989.- 128 с.
9. Походенко С.В. Психологические особенности мотивации лидерства у подростков: Автореф. дисс. канд. психол. наук. – Киев: Ин-т психологии АПН Украины, 1998. – 20 с.
10. Ляудис В.Я. Структура продуктивного учебного взаимодействия//Психолого-педагогические проблемы взаимодействия учителя и учащихся.-М.:Просвещение,1980. - С.75-83.
11. Кочюнас Р. Психотерапевтические группы: теория и практика.-М.: ВЛАДОС, 2000.-344 с.
12. Зайцева Т.В. Теория психологического тренинга: психологический тренинг как инструментальное действие. – М: Смысл, 2002.- 80 с.
13. Исурина И.Г. Динамика в тренинговых группах // Журнал практического психолога.- М., 1998. -№1. -С.31-44.
14. Кобзева В.В Как повысить эффективность тренинга // Кадровое дело.- М., 2004. - №8.- С. 73-78.
15. Лидерс А.Г.Особенности позиции практического психолога по отношению к клиенту // Журнал практического психолога. – М., 1998. -№9. -С.102-105.

